

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI**



**Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib
boriladigan ta’lim–tarbiya mazmuni va jarayoni**
*Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ota-onalari uchun uchun
metodik tavsiya*



Toshkent 2022-yil

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy metodik Kengashining **2022-yil 27-sentabrdagi 3-sonli** yig‘ilish qarori qaroroi bilan ma’qullangan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori **L.R.Gaynutdinov**ning umumiy tahriri ostida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

M.Kasimova

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti.

K.Jo‘raboyev

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktorining birinchi o‘rinbosari.

Taqrizchilar:

F.Qodirova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrası mudiri p.f.d., (DSc), proffessor.

X.Usmanova

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi rahbari. p.f.n., dotsent.

Ushbu metodik tavsiya inklyuziv sinflarda ta’lim olayotgan alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning o‘qituvchilari hamda ota-onalar uchun mo‘ljallangan.

MUNDARIJA

1. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim–tarbiya mazmuni va jarayoni.....	4
2. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik muammosi va xususiyatlari.....	11
3. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan dars va darsdan tashqari vaqtda ishlash usullari.....	17
4. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun psixologik-pedagogik rivojlantiruvchi metodikalar.....	21
5. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	31

Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim– tarbiya mazmuni va jarayoni.

Bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida jamiyat hayotining barcha sohalarida bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

Jumladan inson manfaatlarini ko'zlash va himoyalash faoliyatida imkoniyati cheklangan shaxslarni sog'lom insonlar qatori milliy ruhda tarbiyalash, ijtimoiy yordam ko'rsatish ya'ni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ahloqiy, aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda ijtimoiy jamiyatga yetuk, mustaqil fuqaro darajasida tayyor bo'lib yetishishlarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish masalalariga hukumatimiz tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur o'zgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarish jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ko'payishiga ham sabab bo'ladi.

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat an'anaviy uslublarga tayanib dars o'tish yyyetarli emas. Bu esa ta'lim tizimida jahon tajribasidan keng foydalanishni talab yetadi.

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish borasida bir qator ilmiy-amaliy tajribalar olib borilmoqda. Juda ko'plab davlatlarda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'laligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish davlat siyosati rejasiga kiritilgan. "Ta'lim tizimi deb yozadi L.S.Vigotskiy - nuqsonli bolani tarbiyalashning asosiy vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya

qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki, maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin". L. S. Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etishda maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunida inklyuziv ta'lim olishning alohida shakli sifatida belgilandi. Uning "alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan"ligi va "jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida" tashkil etilishi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiiyaning tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta'lim xizmatining moslashgan turlarini, differentsial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-sonli qarorining 1-ilovasi inklyuziv ta'limga bag'ishlangan bo'lib ushbu qarorda inklyuziv ta'limga qabul qilinadigan bolalar ro'yxati ham keltirib o'tilgan. Ushbu ro'yxatda intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish ham ko'rsatib o'tilgan.

O'sib kelayotgan yoshlar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar mavjud bo'lib, ularning sifatli ta'limga jalb etilishi borasida ham qator ijobiy

o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning jamiyatning kundalik hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi maxsus va inklyuziv ta'lim tizimi mazmuni va shakllari takomillashtirilmoqda.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola maxsus yondashuvni talab etadi. Bolani shakllantirishni samarali amalga oshirish uchun har bir yosh davrlarida bola rivojlanishining psixologik qonuniyatlari haqidagi bilimlarni chuqur egallash darkor.

Bolalarda ruhiy rivojlanish susayish muammosini qanday yuzaga kelishi mumkin?

Ruhiy rivojlanishning susayishi muammosi bizda dastlab 1960-yillar oxiri va 1970-yil boshlarida o'rganila boshlangan. 1979-yillargacha bunday bolalarda ruhiy rivojlanishining susayishi vaqtinchalik o'tib ketadigan holat deb hisoblangan. Chunki o'sha davrlarda ham sinflarda bolalarning orasida giperaktiv bolalar yoki ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar maktabga kelgan vaqtda boshqa bolalardan ajralib qola boshlaganlar. Ular barcha bilan birgalikda dars mashg'ulotga moslasha olmasliklari, darslarga kirishib keta olmasligi, belgilangan daqiqalargacha tanaffusgacha joyida o'tirishga qiynalishi ya'ni turib ketishi, yonidagi sherigini partadoshini darsdan chalg'itishi mumkin vahokazo. O'quvchilarni orasida maktabga, darslarga, dastlab moslashguncha bolalar bir joyda o'tirolmaydigan, darsga qiziqmaydigan, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydigan, darsga qatnashishni hoxlamaydigan bolalar albatta hozir ham uchrab turadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'rganish bo'yicha bir qator olimlar izlanishlar olib borganlar. K.S.Lebedinskayaning ma'lumotlariga ko'ra, ommaviy maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining orasida 5-6 % ni ruhiy rivojlanishi susaygan bolalar tashkil etadi deb hisoblaydi.

Ruhiy rivojlanishning orqada qolishi, susayishi deganda, ruhiy rivojlanishning bola yoshiga to'g'ri kelmasligi tushuniladi. Bunday orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi, tug'ilish vaqtidagi, homila davrida yoki go'dakning ilk yoshidagi zararlanishlari yoki kuchli shamollashi natijasida yuzaga keladi.

Inklyuziv sinfda o'quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati–intellekti mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlari bilan sog'lom bolalardan ajralib turishadi. Bularning barchasiga birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari, zararlanishi natijasida kelib chiqadi, shu sabab ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi o'rinda, aqliy zaiflik esa, ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar asosan ikki guruhga bo'linadi, birinchi guruhi yengil darajadagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, 2-guruhi ruhiy rivojlanishi sezilarli darajada namoyon bo'ladigan bolalar.

Olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Berto'n, Ye.M.Dunayeva va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar:

1) konstitutsional; 2) somatogen; 3) psixogen; 4) serebral shakli.

1. Konstitutsional shakli: Bu turdagi bolalar o'zlaridan bir necha yosh kichik bo'lgan bolalar rivojlanishiga to'g'ri keladi. Ularda kayfiyat ko'tarinki bo'ladi, o'yin faoliyatida boshqalardan ko'ra tashabbuskorlik xislatlari ustunlik qiladi.

Ta'limdagi qiyinchiliklar asosan intellektual qiziqishlarning yo'qligi darsga qiziqmasligi yaqqol sezilib turadi (o'yinga bo'lgan qiziqishlari ustunlik qiladi). Bolalarda ko'pincha kayfiyat ko'tarinki, bo'lganligi sababli, xulq-atvorda hissiy motivlarning ustunlik qilishini kuzatishimiz mumkin, hissiyotlarning yuzakiligi, turg'unsizligi, bilan ajralib turadi.

2. Somatik shakl rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida turli kasalliklarga qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi kasalligi, yurak-tomir kasalliklari erta tug'ilish, asfiksiya, tug'ilish travmasi, neyroinfeksiyalar sabab bo'lishi mumkin. Nafaqat onaning homiladorlik davridagi kasalliklari sabab yana bolaning ham ilk yoshda har xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o'sib-unmay qolishi

mumkin, bu esa o'z navbatida ruhiy jihatdan rivojlanishida orqada qolishga, kechikishga olib keladi.

Bolalarda turli hil surunkali infeksiyalar, allergik holatlar, tug'ma porok kabi kasalliklarda ruhiy rivojlanishi sustlashish muammosi ayniqsa ko'plab uchratish mumkin.

Psixogen shakli- ruhiy rivojlanishi sustlashganlikning eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy ta'siri natijasida ruhan rivojlanishining sustlashishiga olib keladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashishining psixogen shakliga quyidagilar sabab bo'ladi.

1. Oilada bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qo'yish natijasida bolalarda burch va mas'uliyat hissi shakllanmaydi. Aql-idrokning rivojlanishini sustligi, qiziqishlari, bilish faoliyati, his-tuyg'u va iroda yetishmasligi kuzatiladi. Buning ustiga o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun zarur bilim va taassurotlarning yetishmasligi ham qo'shiladi.

2. Yana bir sababi bolani har tomonlama erkalatish, uni yetarli mustaqil faoliyatga o'rgatmaslik, tashabbuskorlikning yetishmasligi, mas'uliyat hissini shakllantirilmaganligi, bolani "oila erkasi" qilib o'stirish, haddan tashqari uning ko'ngliga qarab ish tutish natijasida ham bola ruhiy rivojlanishida bir qadar orqada qolishni kuzatish mumkin.

3. Bolaga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish, ularni jismoniy jazolash, ularga haddan ziyod qattiq qo'llik qilish natijasida ham yoki ota-onalarning alkogolizmga berilganligi alkogolizmga aloqadorligi natijasida bolaga nisbatan doimiy tajovuzkorona munosabatlari uni asabiylashtirib, ruhan rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo'ladi.

Bunday bolalarda qo'pollik, jur'atsizlik, tashabbussizlik, mustaqilsizlik, qo'rqqoqlik va boshqa hislatlar shakllanib qoladi. Bularning hammasi aql-idrokiga, bilish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida aql-idrok bilish faoliyatiga aloqador kamchiliklarga aksari noto'g'ri tarbiya natijasida paydo bo'lgan hislatlar

ham qo'shilib pirovard natijasida shaxsning rivojlanishi izdan chiqadi, unda patologik hislatlar yuzaga keladi. Ana shunday bolalarni pedagogik qarovsiz bolalardan ajrata olish lozim. Pedagogik qarovsiz bolalarning psixikasi normal bo'lib, ular noto'g'ri tarbiyalanganligi natijasida ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga o'tib qoladilar. Xolbuki, ruhan sust rivojlangan bolalarda shaxsiyatning har tomonlama noto'g'ri rivojlanishi markaziy nerv sistemasidagi yengil darajadagi organik jarohatlanish bilan bog'liq.

4. Serebral shakli bunda asosan ichki omillar natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashishi muammosi paydo bo'ladi. Masalan ichki sekretiya bezlarining faoliyati buzilganligi natijasida bolaning his-tuyg'ulari yaxshi rivojlanmay qoladi. Bolani yuzida uning xursandligini ham, hafaligini ham bilish qiyin bo'ladi. Depressiyaga moyilligi oshadi, uyqusi va ishtahasi yaxshi bo'lmaydi,

Markaziy nerv sistemasi tez charchaydi natijada bolaning aqliy qobiliyati pasayib ketadi. Xotirasi past bo'ladi, diqqati tarqoq bo'ladi. Tez ta'sirchan bo'ladi ayniqsa qizlar yig'loqi bo'lib qoladi, o'g'il bolalar tez qo'zg'aluvchan bo'lib qoladi. Shuning natijasida ish yoki o'qish qobiliyati past bo'ladi bola tez charchab qoladi.

Yana bir gurux ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda yakkalikdan qo'rqish hissi paydo bo'ladi, o'zi va atrofdagilar sog'lig'i uchun doimo xavfsirab yuradi, duduqlanishi ham mumkin, enurez, kabi hodisalar bilan ham birga namoyon bo'ladi. Keyin psixomotor qo'zg'aluvchanligi natijasida—asosan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi serharakatlik, diqqatning tarqoqligi, tez chalg'ish bilan kuzatilishi mumkin, kayfiyatning aytarli sababsiz aynib turishi, tajovuzkorlik qilishga moyil bo'lishi bilan ham xarakterlanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'qishi past bo'ladi, biroq bu holat o'z vaqtida va to'g'ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o'zlashtira oladilar. Faqat ularda sog'lom bolalarga nisbatan maktabga adaptatsiya bo'lish jarayoni biroz sust kechadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik muammosi va xususiyatlari.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning individual psixologik xususiyatlarini bilish ham muhim ahamiyat kasb etuvchi masala hisoblanadi. Chunki bolaning psixologik tomondan (psixologik jarayonlari, psixologik holati, psixologik xususiyatlari) bilsangiz bola bilan munosabatga kirishish oson kechadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik jarayonlari:

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning diqqati: Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning barchasida diqqatning yetarli rivojlanmaganligini ko'rish mumkin.

Bu haqida bir qancha olimlarning (T.V.Egorova, V.I.Lyubovskiy, T.I.Karenkova, L.I.Peresleni, S.A.Domishkevich, V.L.Podobed, A.G.Poddubnaya, P.B.Shoshin, N.G.Lutonyan, A.A.Avtotinish, I.A.Korobeynikov, V.S.Slepovich, V.I.Nasanova, R.D.Triger) ko'rsatishicha, diqqatning yetarli rivojlanmaganligi quyidagicha ifodalanadi:

- ma'lum bir faoliyatning dastlabki boshlanish bosqichida diqqatning kuchliligi va ma'lum vaqtdan so'ng pasayib ketishi; Ya'ni dars mashg'ulotlari misolida olib qarasak darsning boshlanishida diqqati darsga qaratilgan bo'ladi va ma'lum vaqtdan so'ng diqqatining tarqalishini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Darsning boshlanish qismida yaxshi o'tirib darsni tinglaydi berilgan topshiriqlarni bajaradi, keyin, diqqati pasaygandan so'ng uyog'iga darsga qiziqmasligi, darsga e'tiborini qaratmasligi kuzatiladi.

- diqqatning kuchliligi faoliyat boshlangandan keyin ma'lum vaqt o'tgach yuzaga kelishi; bunda yuqoridagini aksi kuzatiladi. Dars mashg'ulotining boshlanishida darsga qiziqmay o'tiradi keyin o'qituvchi tomonidan qiziqarli o'yin yoki darsga oid mashqlarni bajarilganda, faoliyat bilan shug'ullantiriladigan daqiqalarda darsga diqqatini qaratishni boshlaydi.

- diqqat kuchining muntazam ravishda kuchayib va susayib turishi kuzatiladi. Bunda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bola darsning faqat o'ziga yoqgan qismiga diqqatini qaratadi. Masalan guruhlariga bo'lib ishlanganda, dars

mashg'ulotlari orasida jismoniy daqiqalarni bajarish paytida, darsda mavzuga oid diqqatni jalb qiluvchi o'yinlar tashkil etilganda, interfaol metodlarni qo'llanganda darsga diqqatini qaratishi mumkin.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni idroki: Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning idroki quyidagicha xarakterli xususiyatlarga ega.

Birinchidan sezgi organlari orqali olingan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash tezligi tengdoshlariga nisbatan past bo'ladi. Shu sababli ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ma'lum bir materialini o'zlashtirish uchun ko'p vaqt sarf qiladilar. Ya'ni qayta qayta o'rganish natijasida ma'lum bir bilimni egallaydilar.

Ammo aqli zaif bolalardan bir muncha farq qilib, normal tengdoshlari o'zlashtirgan materialni to'la o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Faqat yuqorida aytib o'tganimdek materialni tez-tez qaytarish natijasida ma'lum bir bilimni egallay oladilar.

Ikkinchidan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar diqqatida tarqoqlik bo'lganligi sababli to'liq eshitib olish, taktil (ushlab ko'rib sezishi), ko'rish idroklarining nozik shakllari yani narsa va hodisalarning barcha elementlarini idrok qilishi yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababali oraliq tovushlarni va ranglarni normal tengdoshlaridek farqlay olmaydilar.

Uchinchidan, narsa va buyumlarning fazodagi joylashish munosabatlarini idrok etishlariga qiynalishi. Buyumlarning bir-biriga nisbatan oldida, yonida, orqasida kabi tushunchalarni yetarli tushunib yetmaydilar yoki idrok etayotgan obyekt, narsa va buyumlar sonining ortishi, ko'payishi, natijasida idrok etilayotgan vazifa murakkablashadi, bunday vaziyatda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda idrokning birmuncha yomonlashishiga olib keladi. Ya'ni narsalar ko'p bo'lsa bola hammasini idrok eta olmay chalkashtirib yuboradi.

Idrok etilayotgan narsalarni ko'rganda ham, ma'lum darajada buyumning, kam belgilarini ko'rishga ulguradilar. Bunday ko'rish idroklarini bartaraf etish uchun ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga maxsus yordam berib borilishi kerak bo'ladi. Bunday yordamni inklyuziv ta'limda maxsus o'qituvchi va tyutorlar

beradilar. Maxsus o'qituvchi belgilangan mavzuni o'qituvchi o'tishidan oldin bolaga tanishtirib darslikda berilgan mashg'ulotlarni bajarib unda yangi mavzu to'g'risida tushunchalarini hosil qilib qo'yadi. Aynan darsda foydalaniladigan narsa va buyumlarni yoki rasmlarni ham maxsus o'qituvchi tomonidan bolaga ko'rsatish bilan birga og'zaki tushuntirish ishlarini ham olib boradi. O'qituvchi mavzuni o'tgunga qadar bolada dastlabki mavzuga oid tushunchalarini maxsus o'qituvchi tomonidan hosil qilinadi.

Maxsus o'qituvchi tomonidan idrok etayotgan narsalarini tushuntirib, ham ko'rsatib, ham taktil (sezish, islash va b. ga asoslangan) tushunchalarini hosil qilish ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolaning idrokini rivojlanishiga turtki bo'ladi. Yangi darsni o'qituvchi darsda barcha o'quvchilar bilan birgalikda o'tib berishi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolada takrorlash bo'ladi. U oldin maxsus o'qituvchi bilan yangi o'tilayotgan mavzuni o'tganligi va unda dastlabki tushunchalar hosil bo'lganligi uchun dars mashg'ulotida bu mavzuni o'zlashtirishi bir muncha osonlashadi.

Inklyuziv sinf o'qituvchisi va maxsus o'qituvchi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan ishlashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ma'lum materialni egallashi uchun ko'p vaqtning sarflanishini hisobga olishi va mavzuni o'zlashtirishda takrorlashni sog'lom bolalarga nisbatan ko'paytirish, ya'ni ruhiy rivojlanishi sustlashgan bola ko'proq berilgan mavzuni asosini takrorlasa bolada ko'nikma hosil bo'ladi. Masalan alifbe darsida "A" tovushi va harfi o'tilsa "A" tovushini o'zlashtirishga va "A" tovushiga oid rasmlarni nomini aytib berishni takrorlatish maqsadga muvofiq. Keyinchalik ko'nikma hosil bo'lgandan so'ng "A" harfini yozishga va "A" harfi qatnashgan so'zlarni o'qishga va yozishga o'rgatish natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda sog'lom bolalarga nisbatan tenglashish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga sog'lom bolalarga qo'yiladigan talabni qo'ymaslik lozim. Ko'rish orqali qabul qilinadigan materiallar mumkin qadar kam elementlardan

iborat bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi chunki ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ko'p elementli materiallarni idrok qilishga qiynalishadi.

Yangi materiallar berish vaqtida, bolalar diqqatini chalg'itadigan qo'zg'atkichlar bo'lmasligi kerak. Yangi material berish paytida bolaning oldida aynan mavzuga oid ko'rgazmalik materiallar yoki rasmlar bo'lsin boshqa darsliklarini imkon qadar oldida turmasligini ta'minlash zarur. Shundagina ularning diqqati ortiqcha elementlarga tarqalib ketmaydi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning xotirasi.

Xotira jarayonlarining buzilishi murakkab va o'ziga xos ko'rinishiga ega. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar xotirasining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ular xotirasining ayrim tomonlari ko'proq, ayrim tomonlari kamroq buzilganligidir.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar xotirasining kamchiliklariga qaramasdan, ularda yetarli rivojlanish imkoniyatlari bor. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning xotirasini o'rganish borasida turli olimlar izlanishlar olib borganlar. G'.B.Shoumarov ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar xotirasining turli tomonlari atroflicha ochib bergan. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar xotirasining hajmi, eslab qolishning turg'unligi, qisqa muddatli, operativ, ixtiyoriy, ixtiyorsiz xotira turlari normal tengdoshlaridan birmuncha pastligi aniqlangan.

Qisqa muddatli xotira darajasi normal tengdoshlariga nisbatan past bo'lishi, uning hajmi aksariyat holda 5 ta raqamdan oshmaydi (maxsus Veksler metodikasi bo'yicha). Misol uchun aksariyat holda 2-sinf normal o'quvchilarning qisqa muddatli operativ xotirasi 4 ta raqamni tashkil etsa, ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarda 3 ta raqamni, aqli zaiflarda 2 ta raqamni tashkil qiladi.

G'.B.Shoumarov kitoblarida ta'kidlab o'tilgan ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning mexanik xotirasi normal o'quvchilar darajasiga yaqin bo'lib, aqli zaif bolalar darajasidan keskin farq qiladi. Ya'ni ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning mexanik xotirasi yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarining ixtiyorsiz esda olib qolishi 5-6 yoshli normal bolalar darajasiga yaqin bo'ladi. Ruhiy

rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning esda saqlab qolish jarayonlarini atroflicha o'rgangan T.V.Egorovning ma'lumotlariga ko'ra, xotira faoliyatining normaga yetmasligi asosida asab sistemasining muntazam tez charchashi yotadi deb ta'kidlaydi.

Bir so'z bilan aytganda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning mexanik xotirasi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Narsalarni eslab qolishda mantiqiy emas mexanik xotiraga tayanib eslab qoladi.

Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning tafakkur xususiyatlari

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tafakkur xususiyatlarini o'rganish ham diagnostik, ham korreksion-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda, juda katta ahamiyatga ega.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tafakkurning o'ziga xos bo'lgan va uni aqli zaiflardan oson ajratishga imkon beradigan xususiyatlaridan biri, so'z-mantiq tafakkur bilan ko'rgazma-obrazli tafakkur turlarining o'zaro munosabati va rivojlanish darajalaridir.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning so'z-mantiq tafakkuri sog'lom tengdoshlarichalik yetarli rivojlanmagan bo'ladi, ammo, ularning ko'rgazma-harakat va ko'rgazma-obrazli tafakkur turlari aqli zaiflardan keskin farq qilib, normal tengdoshlariga yaqinlashib boradi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga sabr bilan yillar davomida mashg'ulotlarda shug'ullanish natijasida sog'lom tengdoshlariga tafakkur ko'rsatkichlari yaqinlashadi.

Ular bilan diagnostik metodikalar o'tkazilganda hamda unda ma'lum obyektlarni tahlil qilganda ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar normal tengdoshlariga nisbatan kamroq, lekin aqli zaif bolalarga nisbatan ko'proq belgilarni aniqlaydilar. Lekin, shu bilan birga ularning tahlil jarayoni rejasiz ravishda birdaniga bajarilsa obyektning ko'pgina qismlarini tushirib qoldirishi aniqlangan. Ammo, ularga o'qituvchi tomonidan ma'lum bir tegishli yordam berilganda, tahlil natijalarida keskin o'zgarish bo'lib, normal tengdoshlariga yaqinlashadi.

O'qituvchi tomonidan yordam berilganda aqli zaif bolalarda ham ijobiy o'zgarishlar bo'lishi mumkin, ammo, bu o'zgarish ruhiy rivojlanishi sustlashgan

o'quvchilardagidek katta bo'lmaydi. Bu esa ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning o'z taraqqiyotlarida rivojlanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarga ega ekanligini, ular pedagogik yordamdan samarali foydalana olish mumkin ekanligini ko'ramiz.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning nutqi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqi normal bolalarga nisbatan rivojlanish, shakllanish nuqtai – nazaridan birmuncha orqada qoladi. Ularda turli talaffuz kamchiliklari uchrab turadi. Tovushlar talaffuzining buzilishi, tovush obrazlarining yetarli shakllanmaganligi yozish va o'qishda xatolarga yo'l qo'yishga olib keladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar lug'at boyligi birmuncha cheklangan bo'ladi, aktiv doimiy ishlatiladigan so'zlar lug'ati yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Ular nutqidagi mavjud tushunchalar tor, noaniq ba'zan esa noto'g'ri ham bo'lishi mumkin. Yozishda ham grammatik xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

Boshlang'ich sinfga chiqsa ham ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning qiziqishlari bog'cha yoshidagi bolalar qiziqishga o'xshab ketadi. Shuning uchun o'yin ular uchun asosiy faoliyat rolini o'ynaydi. Ularning aksariyat qismi 7 yoshda ham maktabga bormasdan bog'chada qolishni hohlaydi. Chunki o'qishga bo'lgan qiziqishlarga nisbatan, o'yinga bo'lgan qiziqishlari ustunlik qiladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari yoki maxsus o'qituvchilar ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan ishlashda dars mashg'ulotlarida mavzuga oid interfaol o'yinlardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan dars va darsdan tashqari vaqtda ishlash usullari.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan ishlash - bu bolaning shaxsiy rivojlanishi bilan birga, kognitiv va hissiy-ixtiyoriy sohaning aniqlangan buzilishlarini tuzatish zaruratini ham amalga oshiradi.

Ta'limning hayot bilan bog'liqligi printsipli o'qitish mazmunini rejalashtirilganligi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ham salbiy xususiyatlarini kamayishiga va ijobiy hislatlarini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarni o'qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili bilan bilim, ko'nikma va malakalarni ma'lum tartibda, o'quv materialining har bir elementi boshqalari bilan mantiqan bog'langan, keyingisi esa avvalgisiga asoslangan tizimda shakllantirilishini talab qiladi.

O'quv jarayonining samarali ishlashi uchun maqbul sharoitlarni yaratish printsipligiga rioya qilishning talab etadi.

Og'zaki, vizual va amaliy o'qitish usullarining maqbul kombinatsiyasini tanlab olish kerak va bilim, ko'nikmalarni egallash jarayonining samaradorligi oshirish uchun insonning barcha hissiyotlari: eshitish, ko'rish, teginish jarayonidan maksimal darajada foydalanish talab etiladi.

Ko'rib chiqilayotgan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar toifasiga nisbatan ushbu printsipl og'zaki, vizual va amaliy usullardan o'qitish maqsadida ham, tuzatish va rivojlantirish uchun ham foydalanishni o'z ichiga oladi. O'qitishda faoliyat yondashuvi printsipli maktab o'quvchilarini o'qitishda predmetli-amaliy faoliyatning rolini oshiradi, bu davrda idrok, e'tibor, xotira, fikrlash jarayonlari va nutq rivojlanadi. Umuman olib aytganda ham ko'rib, ham eshitib, ham amaliy bajarishi bolaning darsni o'zlashtirish darajasini oshirishga olib keladi. Ko'zini oldida narsa, buyum, yoki hodisa to'g'risida tasavvur va tushuncha paydo bo'ladi.

Ko'proq ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni darsni o'zlashtira olmasligiga olib keluvchi omil bu uning uchun murakkab ko'rsatmalar mavjudligida namoyon bo'ladi. Vazifani qisqa segmentlarda bo'lishi hamda uni bolaga bosqichma-bosqich taqdim etish, vazifani juda aniq shakllantirish kerak.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning yuqori darajada charchashi, haddan tashqari hayajon shaklida bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolada charchoq boshlanganidan keyin faoliyatni davom ettirishga majbur qilmaslik, vaqtda bolaga dam olishiga sharoit yaratib berish kerak bo'ladi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish lozim korreksion rivojlantiruvchi o'quv vazifalari ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchini diqqati, xotirasi, bilish faoliyatlari, qobiliyati, tafakkuri va nutqining rivojlanishiga olib keladi. Korreksion rivojlantiruvchi mashqlarni asosan maxsus o'qituvchi va psixolog tomonidan amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham dars mashg'ulotlarida barcha o'quvchilar uchun o'tayotgan mavzusiga oid foydali korreksion mashg'ulotlaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolaning muloqot qobiliyatlarini shakllantirish bolani faol nutq muhitiga imkoniyatidan kelib chiqqan holda maksimal darajada singdirishni taqozo qiladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar diqqat barqarorligining past darajasiga ega, shuning uchun bolalar e'tiborini diqqat barqarorligini rivojlantirishga yo'naltiruvchi metodlarni dars davomida ko'proq qo'llash kerak. Ularga dars mashg'ulotini egallash uchun ko'proq namunalar bilan ishlashi, berilgan topshiriqni qayta-qayta bajartirib bilim va ko'nikmasini shakllantirish lozim. Lekin bajartirishga majburlamaslik kerak. Bola tez o'qishdan charchab sovub qolishi mumkin.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ota-onalari bilan ishlash juda muhim. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ota-onalari uyda bolani nimani o'rgatish kerakligi va qanday o'rgatish kerakligi to'g'risida boshlang'ich sinf o'qituvchisi va maxsus o'qituvchidan doimiy pedagogik maslahatlar olib turishi kerak bo'ladi.

O'qituvchilar faoliyatida psixologik-pedagogik tadbirlar majmuasida ota-onalarning rolini faollashtirish ta'minlaydi: Bu faollik nima uchun kerak?

Bolaga qo'yiladigan talablarning birligi uchun kerak. Darsda o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash uchun uyga berilgan vazifalarni albatta ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan birga ota-onalar o'tirib ishlaydilar. O'qituvchining bolaga qo'yadigan talabi ya'ni undan qay darajada vazifani talab qilishini ota-ona ham bilishi kerak. Chunki o'qituvchi ham ota-ona ham bolaning imkoniyatlarini qay darajadiligini bilgan holda vazifa beradi va imkoniyati

darajasida vazifani nazorat qiladi. Sogʻlom bolalarning ota-onalarining alohida taʼlimga ehtiyoji boʻlgan bolalar va ularning oilalariga nisbatan tolerantlik munosabatni shakllantirishga qaratilgan ishlarni ham amalga oshirish muhimdir.

Bolaga uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda oʻz vaqtida yordam koʻrsatish; Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda turli fiziologik ehtiyojlarini, individual xususiyatlarini hisobga olish. Darsda uzoq muddat oʻtirishga qiynalishi, charchab qolishi mumkin bunday vaziyatda tyutor yoki maxsus oʻqituvchi, psixolog tomonidan korreksion mashqlar oʻtiladigan xonaga yoki psixologning xonasida dam olish burchaklari boʻlsa u yerga olib chiqib bolaga sharoit yaratib berish lozim. Turli harakatlarni amalga oshirishi, diqqatini tez- tez buzilishi yoki diqqatini jamlay olmasligi kabi hususiyatlarini hisobga olish va shunga qarab taʼlimdagi korreksion ishlarni amalga oshirish lozim.

Bolaning sogʻligʻini himoya qilish va mustahkamlashni kuzatib boring. Sinfda jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sogʻlomlashtirish oʻzgarishi, dinamik soatlar, ochiq havoda mashgʻulotlarni tashkil etish orqali psixofizik ortiqcha yuklarning, hissiy buzilishlarning, bolalarning shikastlanishining oldini olish mumkin.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning oddiy kichik bir yutuqlarini ham doimiy eʼtirof etib borish kerak. Bu ularning oʻquv faoliyatiga qiziqishiga va darsda faol qatnashishiga turtki boʻladi. Ham boshqa bolalar bilan tengligini, uning ham yutuqlari borligini his qiladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni har qanday qoʻllab-quvvatlash bu ularning kognitiv qiziqishni oshirishga, xulq-atvorning oʻzboshimchalik shakllarini kamaytirishga, oʻquv faoliyatining rivojlantirishga olib keladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning aqliy rivojlanishidagi kamchiliklarni muvaffaqiyatli tuzatishning muhim sharti-bu toʻgʻri tashkil etilgan shart-sharoitlarda, mumkin boʻlgan pedagogik taʼsirning yetarliligi, bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan oʻqitish usullari, yaʼni rivojlanishni ragʻbatlantiradigan va bolaning haqiqiy imkoniyatlariga mos keladigan oʻqitish

usullarini to'g'ri tashkil etish natijasida inklyuziv sinflardagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish mumkin.

O'quvchilarning rivojlanish darajasini oshiradigan, bilimga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadigan sinfdan tashqari, guruhli ishlarni tashkil etish yoki bayram tadbirlarida ishtirokini ta'minlash ham ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni sinfdan faolligini oshishiga sabab bo'ladi.

Ruhiy holati tufayli o'quvchi ushbu darsda ishlay olmaydigan hollarda, materialni unga darsdan tashqari alohida maxsus o'qituvchi tomonidan qayta tushuntirib beriladi.

Yangi o'quv materialini ham o'zlashtirishiga qarab qismlarga bo'lib tushuntirilishi lozim. Chunki bittada hamma ma'lumotlarni bolaga bersangiz, unda chalkashmovchilik bo'ladi. Ma'lumotlarni egallash koeffisienti pasayadi. O'qituvchining savollarini aniq shakllantirilishi kerak, xatolarning oldini olish bo'yicha ishlarga katta e'tibor berish kerak: Yuzaga kelgan xatolar nafaqat tuzatiladi, balki o'quvchi bilan birgalikda tahlil qilinishi kerak. Nima uchun buni hatoligini, asli qanday holatda to'g'ri bo'lishini tushuntirib ko'rsatib berishi kerak.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar darsda halaqit berib turib yoki yurib ketsa unga "o'tir" deb qattiqqo'llik qilmasdan turgan vaqtida unga darsga oid topshiriq berib yuborishi mumkin. Masalan "yonimga kelib daftarlarni tarqatishimga yordamlash" yoki "yig'ishtirib olishimga yordamlashib yubor", sinfdan mavzuga oid doskada biron bir topshiriqni aytib "yozib keyin joyingga o'tir", "menga (sinfdoshlarining ismini aytib) daftarini olib kelib berib keyin joyingga o'tir" deb bolani chalg'itib to'plangan energiyasini chiqartirib keyin joyiga asta o'tirishiga erishish.

Darsdagi muayyan vazifalarni agar bola bajarishga qiynalsa bajarishga yordam berishi. Masalan o'qituvchi oddiy sog'lom bolalarga ham agar yozishida, o'qishida qiynalsa unga yordam berishi mumkin. Shular qatorida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolaga ham ko'rsatma berib vazifani bajarishiga yordam berishi mumkin.

Texnologiya darslarida tayyor namunalarni yoniga qo'yib shu namunadagi narsalarni yasashni bosqichma-bosqich ketma-ketligini ko'rsatib yasashni o'rgatish.

Har bir darsda bola uchun ko'rgazmali qurollarni nomini eshitib, yaqindan tanishib ushlab ko'rish orqali bolani narsa va predmetni xotirasida yaxshiroq saqlanib qolishiga erishish.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun psixologik-pedagogik rivojlantiruvchi metodikalar

Voqealar ketma-ketligini aniqlash

Voqeband rasmlarni ko'rsatish orqali bolada vazifani ma'nosini tushunish fazoviy-vaqt va sabab oqibat munosabatlarini aniqlashga yo'naltiriladi. Topshiriqni bajarish jarayoni tahlil qilinadi, yani rasm bo'yicha berilgan savollarga javob hikoya tuzish, rasmga nisbatan hissiy munosabat va hokazolar. Bolaga ko'rsatilgan yordam harakteri e'tiborga olinadi.

O'tkazish usuli: Bolaning oldiga rasmlar tasodifiy tartibda qo'yiladi. So'ngra boladan rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish va rasm yuzasidan hikoya tuzish taklif etiladi. Ko'rsatma: bu ko'rsatilayotgan rasmlarda bitta voqea tasvirlangan. Birinchisida boshlanishi, boshqasida davomi shunday tarzda oxirigacha. Barcha rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda tartib bilan qo'yib chiq: "Dastlab nima bo'ldi, keyinchi va nima tugadi? Bular bo'yicha hikoya tuzib ber" (nima bo'lganini aytib ber). Ko'pincha faqatgina og'zaki ko'rsatmaning o'zi yetarli bo'lmaydi. Bunda bolaga avval rasm ko'rsatiladi va davom ettirish aytiladi.







Kesma sur'atlarni birlashtirish.

Metodika bolalarda to'liq tasvirlarni alohida bo'laklar fazoviy tuzilishni tiklanishi va eslab qolish qobiliyati imkonini beradi. Rasmlar turli darajadagi murakkab metodikaning mazkur variantida bolalarni tadqiq qilish uchun rasmlar keltirilgan.

1. "SIGIR"-4 ta qism.
2. "OT"-3 ta qism.
3. "XO'ROZ"-3 ta qism.
4. "QO'Y"-4 ta qism.

Ko'rsatma: Bolaga raqamning butun tasviri ko'rsatiladi va undan rasmda nima tasvirlanganligi so'raladi. So'ngra rasm "buziladi" va qismlari bir-biridan uzoqroq qilib surib qo'yiladi. (agar rasm 2-3-4-5 qismdan iborat bo'lsa, ular aralashtirib yuboriladi). So'ngra boladan rasmni burun holiga keltirib yig'ish so'raladi. Xo'roz rasmni yig'ishda agar bola qiynalsa kesilmagan butun namunadan foydalanish mumkin. Bu holda bola oldiga qo'yiladi va unga rasimga qarab kesma xo'rozni yig'ish taklif yetiladi.



Yetishmagan qismlarni aniqlash metodikasi

Idrok, ixtiyoriy diqqatni tekshirishga mo‘ljallangan tekshiruvchi rasmlarga yetishmaydigan qismlarni topib tekshiriluvchidan so‘raydi. Bu uslubiyat bilan maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar tekshiriladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar diqqatining buzilganligi, tasavvurlarining yo‘qligi, nutqining to‘liq rivojlanmaganligi sababli vazifalarni bajarishga qiynalgan vaziyatda o‘quvchiga namuna asosida ko‘rsatma berib turiladi.



Korrektur sinov

Ko'ruv idroki, diqqatning barqarorligi, samaradorligi hamda ko'chishni aniqlash uchun mo'ljallangan.

Ko'rsatma: Tekshiriluvchiga 2 variant beriladi.

1-variant soddalashtirilgan jalvalda berilgan harflardan ma'lum bir harfni o'chirishni so'raladi.

2-variant. Murakkablashgan bir vaqtning o'zida berilgan harflar qatoridan 2 ta harfni o'chirish so'raladi. Bunda sarflangan vaqt belgilanadi.

KORREKSION SINOV

S	X	I	R	U	F	K	O	CH	U
F	K	I	R	I	Z	SH	O	U	G
B	SH	G	D	A	T	V	F	SH	A
N	K	V	T	K	S	SH	L	F	T
E	P	CH	T	I	R	T	B	O	T
I	L	I	X	I	I	R	T	B	O
S	S	R	A	M	U	A	L	B	S
B	I	A	L	A	S	M	R	A	Y

UMUMLASHTIRUVCHI SO'ZLARNI ANIQLASH METODIKASI.

Oziq-ovqat: go'sht, non, yog', sut;

Gul: atirgul, lola, binafsha;

Kiyim: shim, yubka, ko'ylak;

Parrandalar: tovuq, o'rdak, g'oz;

San'at: musiqa, raqs, kino;

Davlat: O'zbekiston, Rossiya, Xitoy;

Daryolar: Amudaryo, Sirdaryo, Ugom;

Bolaga rasmlardan foydalanib umumlashtiruvchi so'zlarni ko'rsatish topshirig'i beriladi. Namuna sifatida avval ko'rsatib beriladi. So'ng bolaning bajarishini kuzatib boriladi.

“PIRAMIDANI AJRATISH VA YIG‘ISH” METODIKASI

Maqsad: kattalikni farqlash darajasi, so‘z-mantiq tafakkurning shakllanganligini tekshirish.

O‘tkazish texnikasi: bolaga piramidani ajratish, so‘ngra yig‘ish taklif etiladi. Agar bola bajarmasa uni qiziqtirish uchun piramidani katta odamning o‘zi yig‘ib beradi. Qiyinchilik tug‘ilganda bolaning ko‘zi oldida piramidani yig‘ish va yoyish davomida quyidagi so‘zlarni: “Avval katta halqachani, endi sal kichikroq, yana ham kichikrog‘ini va eng kichkinasini” deb o‘rgatish mumkin. So‘ngra bolaga halqalarning katta-kichikligiga qarab piramidani yig‘ish va ajratish taklif etiladi.



“NAMUNAGA QARAB QURISH” METODIKASI

Metodikaning yo‘nalishi: shakl haqidagi tasavvurlarning, ko‘ruv-fazoviy analiz va sintezning (shakllarni alohida elementlarga ajratish va ulardan bir butun shaklni sintezlash) shakllanganligini tekshirish

6-8 yoshli bolalar uchun xotirasiga tayanib cho‘plardan murakkabroq shakllar (uycha, bir-birini ustiga qo‘yilgan romblar, narvoncha va hokazo) yasashi taklif etiladi. Pedagog shirma orqasida biror shakl yasaydi va bolaga ko‘rsatadi, so‘ngra buzib tashlaydi yoki berkitib qo‘yadi, bola esa xotirasi bo‘yicha shaklni qurishi kerak. Qurgan shaklini so‘z bilan aytib berishi zarur.

Bolada qiyinchilik kuzatilsa, unga shaklni qurish yo‘li yoki shaklni yana bir bor ko‘rsatish orqali yordam beriladi. Agar bu yordam ham samara bermasa, bolaning ko‘zini oldida qurib ko‘rsatiladi va boladan namunaga qarab topshiriqni bajarish so‘raladi.



“SEGEN TAXTASI” METODIKASI

Maqsad: kattalikni farqlash darajasi, soʻz-mantiq tafakkurning shakllanganligini tekshirish. Intelektual qobiliyatini rivojlantirish.

Jihoz: shakllar andozasi chuqur oʻyilgan taxta (4 variantli) va shu chuqurchalarga toʻgʻri keladigan shakllar.

Oʻtkazish texnikasi: bolaga shakllar joylashtirilgan taxta koʻrsatiladi va koʻzining oldida taxta shunday agʻdariladiki, ichidagi shakllar stolning oʻrtasiga tushuriladi. Koʻrsatma beriladi: a) soʻz orqali (“Qara menda har xil shaklli taxta bor, men shakllarni toʻkaman, sen esa joyiga solasan”) yoki b) imo-ishora orqali (eshitishi va nutqi buzilgan bolalarga).

Agar bola topshiriqni tushunmasa va bajarishga kirishmasa, unda eksperiment oʻtkazuvchining oʻzi 1-2 shakllarini solib koʻrsatib berishi kerak. Nooʻrin harakatlarda yana yordam koʻrsatiladi: “Yaxshilab qara, ushbu shaklni qayerga qoʻyish kerak”. Agar samara bermasa, unda bolaning diqqatini taxtadagi shakllarga va qoʻlidagi shaklga qaratiladi. Agar bola nooʻrin harakatlarda davom etsa, unda chamalab, solib koʻrish taklif etiladi.



Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun korreksion mashqlar

Aplikatsiya mashqlarini bajarish orqali qo‘l motorikalarini rivojlantirish, idrokini shakllantirish, mavjud predmet haqida tushunchalarini mustahkamlash.






Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga tana a'zolari bilan tanishtirish.




Avval tana a'zolarini tanishtiradi, o'qilishi va yozilishini o'rgatadi, mustahkamlaydi keyin boladan harflarni to'g'ri qo'yib o'qib berishi so'raladi.



Tana a'zolariga mos kiyimni topish.

Kiyimlar bilan tanishtirish va kiyimlarni moslab kiyishni o'rganish.



Korreksion jadval

“Kiyimlar”

1 	2 	3 	4
5 	6 	7 	8
9 	10 	11 	12
13 	14 	15 	16

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi (<https://lex.uz/docs/-5044711>).
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori.
5. Дети с задержкой психического развития. Т.А.Vlasova, N.A.Sipina tahriri ostida. M., 1984.
6. К.С.Лебединская, Г.П.Бартин, М.Т.Дунаева. Актуальные проблемы диагностики задержки психического развития детей. М., Педагогика, 1982.
7. С.Д.Забрамная. Отбор умственно отсталых детей в специальные учреждения. М., Просвещение, 1988.
8. G.B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi. Toshkent, 1987
9. K.K.Mamedov, G.B.Shoumarov, V.P.Podobed. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. T., 1999.

Internet ma’lumotlari:

1. Рекомендации по организации обучения детей с ЗПР.
2. Формы и методы работы с детьми с задержкой психического развития
3. Формы и методы работы с обучающимися, имеющими задержку психического развития.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim–tarbiya mazmuni va jarayoni

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ota-onalari uchun uchun metodik tavsiya

Muharrir: M.Talipova
Musahhih: I.Tursunova
Kompyuterda tayyorlovchi: G.Ibragimova

Bosishga ruxsat etildi 28.12.2022.
Qog'oz bichimi 60x84^{1/8}. TIMES garniturası
Shartli bosma tabog'I 3,2. Nashr tabog'i 2,2
Adadi 1000. Buyurtma № 15-12.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti
Toshkent, Komolon ko'chasi, Erkin tor ko'chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko'chasi, 6-uy.